O'zbekistonda muhofaza zonalariga oid huquqiy normalar mavjud bo'lishiga qaramay, amaliyotda idoralararo ma'lumot almashinuvining sustligi, hududiy reyestrlarning to'liq shakllantirilmaganligi va nazorat mexanizmlarining yetarsizligi kutilgan samarani bermayapti. Ayniqsa, suv obyektlari, temiryo'l va elektr tarmoqlari atrofidagi muhofaza zonalarida yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egallash hamda noqonuniy qurilishlarni amalga oshirish holatlari ko'p kuzatilmoqda. Bunday holatlar Yer kodeksining 8-moddasida belgilangan yer toifalarining bo'yicha maxsus huquqiy rejimini buzish bilan birga, tabiiy resurslar, ekologik muhit va infratuzilma xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda (Uzakova, 2025). Shu bois ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – muhofaza zonalari doirasidagi yer uchastkalaridan foydalanishning huquqiy tartibini tahlil qilish, qonunchilikdagi bo'shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ishda milliy qonunchilik, xalqaro standartlar va institutsional boshqaruv modelining samaradorligi qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqot doirasida muhofaza zonalarining yagona elektron reyestrini yaratish, normativ-cheklovlarni unifikatsiya qilish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha konseptual yondashuvlar ilgari suriladi.

**Metodlar**

Tadqiqot muhofaza zonalaridagi yer uchastkalaridan foydalanishning huquqiy tartibini baholash va uni takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lib, unda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

– Yer kodeksi, Suv kodeksi, ekologik xavfsizlikka oid qonunlar va muhofaza zonalarini belgilovchi hukumat qarorlari tizimli o'rganildi. Bunda normativ hujjatlardagi huquqiy bo'shliqlar va amaliyotda uchrayotgan muammolar aniqlandi;

– Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasi, xususan, *SMP (Shoreline Management Plan)* va *Water Framework Directive* kabi xalqaro standartlar bilan qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Samarali xorijiy mexanizmlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish imkoniyatlari baholandi;

– Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi, Suv xo'jaligi, Energetika vazirliklari, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari tahlil qilindi. Idoralararo ma'lumot almashinuvi va nazorat mexanizmlaridagi tizimli uzilishlar aniqlanib, muvofiqlashtirishning yangi modellari ishlab chiqildi.

**Natijalar**

Mazkur tadqiqotning obyekti sifatida muhofaza zonalaridagi yer uchastkalaridan foydalanish hamda ushbu sohadagi huquqbuzarliklar tizimi belgilandi. Shu nuqtayi nazardan, amalga oshirilgan dinamik tahlil yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olish holatlari, huquqbuzarliklar tarkibi va ularni bartaraf etish amaliyotining statistik ko'rsatkichlari asosida olib borildi.

Umumlashtirilgan xulosalarga ko'ra, tadqiqot obyektini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar – noqonuniy yer egallash, jarimalar va jinoyat ishlari soni, shuningdek, noqonuniy qurilishlar hajmi – O'zbekistonda muhofaza zonalarining huquqiy tartibga solinishi hozirgi bosqichda *yuqori xavfli* va barqaror emas-

ligini ko'rsatmoqda. Xususan, 2024-yildagi keskin o'sish va 2025-yildagi nisbiy pasayish (biroq 2023-yil darajasidan yuqoriligi) shuni tasdiqlaydiki, qisqa muddatli ma'muriy choralar muammoni vaqtincha yumshatishi mumkin.

Tizimli islohotlar – yagona elektron reyestr, GIS-monitoring, zonal kategoriyalash va muddatli foydalanish instituti joriy etilmas ekan, vaziyatda barqaror ijobiy o'zgarishga erishib bo'lmaydi. Binobarin, mazkur dinamik tahlil maqolada ilgari surilgan takliflarning nafaqat nazariy, balki kechiktirib bo'lmas amaliy zarurat ekanini asoslaydi. Faqat raqamli monitoring va huquqiy unifikatsiya orqali muhofaza zonalarida huquqbuzarliklarni kamaytirish hamda yer resurslaridan ekologik xavfsiz foydalanishni ta'minlash imkoniyati mavjud.

**Muhokama**

R. Ballinger (2005) qirg'oqbo'yi hududlarini boshqarishga doir tadqiqotlarida muhofaza zonalarini shunchaki "cheklovlar majmuasi" sifatida emas, balki iqtisodiy faoliyat va ekologik xavfsizlik o'rtasidagi muvozanat modeli sifatida talqin qiladi. Muallifning *"Coastal Zone Management: Principles and Practice"* asarida hududlarni cho'kish xavfi, eroziya, infratuzilma xavfsizligi va iqlim risklari asosida differensial zonalarga ajratish hamda huquqiy rejimlarni xavf darajasiga qarab belgilash zarurligi ilmiy asoslab berilgan (Kenjaev, 2024).

Ballinger yondashuvining O'zbekiston uchun dolzarb bo'lgan fundamental jihatlari quyidagilardan iborat:

– "Suv–yer–transport–ekologiya" tizimlarini yagona tarmoqlararo model sifatida boshqarish;

– ma'lumotlar va nazorat tizimini GIS asosida yuritish;

– qarorlar qabul qilish jarayoniga mahalliy hamjamiyat va manfaatdor tomonlarni jalb etish.

Ushbu tamoyillarni O'zbekistonning muhofaza zonalari boshqaruviga ekstrapolyatsiya qilgan holda shuni xulosa qilish mumkinki, amaldagi tizimda zonalar ko'proq "statik taqiqlovchi hudud" sifatida talqin etilmoqda. Biroq ijtimoiy-iqtisodiy omillar va ekologik barqarorlikni birlashtiruvchi kompleks, dinamik boshqaruv modeli hali yetarlicha shakllanmagan.

P. Vormeyer o'zining *"Kommunales Flächenmanagement und Schutzgebietssysteme"* asarida muhofaza zonalarini boshqarishda munitsipal (mahalliy) darajadagi boshqaruv rolini markazga qo'yadi (Vormeier, 2017; Kazakov et al., 2022). Muallifning asosiy g'oyasiga ko'ra, maxsus rejimli hududlarga (shu jumladan, muhofaza zonalari) oid barcha cheklov va ruxsatlar kommunal rejalashtirish huquqi bilan o'zaro uyg'unlashgan bo'lishi hamda zonalar bo'yicha kadastr va GIS asosida yagona reyestr yuritilishi shart. Vormeyer noqonuniy qurilishlar va yer egallash holatlarining ko'pchiligi "huquqiy bo'shliq" tufayli emas, balki aholi va tadbirkorlarga hududning huquqiy maqomi haqida aniq, tushunarli va ochiq axborot yetib bormasligi oqibatida yuzaga kelishini ta'kidlaydi.

Bu yondashuv O'zbekiston sharoiti uchun ham o'ta dolzarbdir: muhofaza zonalari bo'yicha elektron reyestrlarning shakllanmaganligi, xaritalash ishlarining yakuniga yetkazilmaganligi hamda biznes subyektlari uchun axborot shaffofligining pastligi natijasida zonal rejimlar ko'pincha deklarativ xarakterga ega bo'lib, amaliyotda "qog'ozdagi cheklov" bo'lib qolmoqda.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil davomida noqonuniy qum-shag'al qazib olish bilan bog'liq 303 ta holat aniqlanib, 268 nafar shaxsga nisbatan 68 mlrd so'm miqdorida jarima qo'llangan. Shundan 42 ta holat bo'yicha tabiatga yetkazilgan 45 mlrd so'm zarar yuzasidan jinoyat ishlari qo'zg'atilgan (Kholdorov et al., 2023). Mazkur ko'rsatkichlar suv havzalari va ularning muhofaza zonalarida o'rnatilgan moratoriy hamda cheklovlar qabul qilingani bo'lsa-da, ularning ijrosini ta'minlovchi nazorat mexanizmlari amalda yetarli darajada samarali emasligini tasdiqlaydi.

Elektr tarmoqlari muhofaza zonalaridagi holat ham tizimli muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Xususan, Buxoro viloyatidagi o'rganishlar natijasida 750 ta noqonuniy bino va inshoot aniqlangan bo'lib, shundan 396 tasi 35/110 kV hamda 354 tasi 220 kV kuchlanishli havo tarmoqalri zonalariga to'g'ri keladi. Sudlar tomonidan ushbu obyektlarning faqat 249 tasini (jami aniqlangan obyektlarning qariyb 33 foizi) majburiy buzish haqida qarorlar qabul qilinganligi nazorat organlari, sud amaliyoti va ijro tizimi o'rtasida sezilarli "funksional uzilishlar" mavjudligini ko'rsatmoqda (Jurayev, 2024).

Yuqoridagi faktlar tadqiqotning asosiy xulosalaridan birini tasdiqlaydi: muhofaza zonalaridagi huquqiy rejim qanchalik qat'iy belgilangan bo'lmasin, institutsional va tashkiliy mexanizmlar (monitoring va nazorat) takomillashtirilmas ekan, noqonuniy faoliyatni to'liq cheklash imkonsiz bo'lib qolaveradi.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 69-moddasiga muvofiq, transport, aloqa liniyalari va elektr uzatish tarmoqlari o'tgan yerlarga tutash hududlarda qonun hujjatlari bilan muhofaza zonalari o'rnatiladi (Shokirov & Musayev, 2025). Shuningdek, Shaharsozlik kodeksining 62-moddasida bunday zonalarda shaharsozlik faoliyatini amalga oshirishga doir maxsus cheklovlar nazarda tutilgan. Mazkur normalar tahlili quyidagi konseptual xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

– muhofaza zonasi – Yer kodeksida alohida yer "toifasi" sifatida emas, balki mavjud toifalar (masalan, qishloq xo'jaligi yoki sanoat yerlari) tarkibida amal qiluvchi qo'shimcha *funksional-huquqiy rejim* sifatida namoyon bo'ladi;

– ushbu rejimning maqsadi – muayyan obyektlarni (suv havzalari, transport va energetika infratuzilmasi) saqlash, texnogen xavfsizlikni ta'minlash hamda salbiy ekologik ta'sirlarni minimallashtirishdir;

– muhofaza zonasidagi yer uchastkalari umumiy foydalanish tartibidan tubdan farq qiluvchi, egalik qilish va foydalanish huquqlarini cheklovchi *imperativ (qat'iy)* normalarga bo'ysunadi.

Ushbu yondashuv nazariy jihatdan Ballinger va Vormeyer konsepsiyalariga muvofiq kelsa-da, amaliyotda O'zbekistonda mazkur maxsus rejimning chegaralari, mazmuni va ijro mexamizmlari bo'yicha *yagona tizimli yondashuv* shakllanmagan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi Farmoni bilan daryo o'zanlarida noruda materiallarni qazib olishga muayyan hududlarda muddatsiz moratoriy joriy etildi. Ushbu moratoriy daryo o'zanlari, sohilbo'yi mintaqalari va suvni muhofaza qilish zonalarini qamrab oladi. Biroq tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, *"E-auksion"* elektron savdo platformasi orqali aynan shu toifadagi (muhofaza zonasidagi) hududlardan qum-shag'al qazib olish huquqining sotilishi amaldagi huquqiy rejimlar o'rtasida *ichki kolliziyani* keltirib chiqarmoqda. Bunday vaziyatda bir tomondan budjet daromadlari va iqtisodiy manfaatlar, ikkinchi tomondan daryo ekotizimlarini saqlash, eroziyaning oldini olish va suv resurslarini muhofaza qilish kabi ekologik ustuvorliklar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelmoqda. Natijada muhofaza zonasi ekologik-huquqiy institut sifatida o'zining fundamental himoya funksiyasini to'liq bajara olmayapti (Shokirov & Musayev, 2025).

*Temiryo'l transporti yerlari* bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 616-sonli qarori temiryo'l infratuzilmasi atrofidagi ajratilgan mintaqa va muhofaza zonalarining aniq o'lchamlarini belgilaydi. Ushbu hujjat bilan mazkur hududlarda bino-inshootlar qurish, qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish, muhandislik tarmoqlarini o'tkazish, chorva o'tlatish kabi faoliyat turlari qat'iyan cheklangan. Qarorning 8- va 14-bandlarida temiryo'l xavfsizligi, ko'rinish zonalari hamda ekologik barqarorlikka tahdid soluvchi harakatlarning aniq ro'yxati keltirilgan. Ushbu normativ bazaning afzalligi – tartibga solishning yuqori darajadagi aniqligidir. Biroq amaliyotda raqamli chegaralar xaritasining mavjud emasligi yoki eskirganligi sababli o'zboshimchalik bilan qurilish holatlari tizimli muammoligicha qolmoqda

(Bundesrepublik Deutschland, 2009).

Shuningdek, elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining 1050-sonli qarori bilan muhofaza zonalarida taqiqlangan faoliyat turlari batafsil tasniflangan. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu zonalarda eng ko‘p uchraydigan huquqbuzarliklar sirasiga elektr tarmoqlari ostida va ularga tutash hududlarda uy-joy, savdo shoxobchalari hamda chorvachilik inshootlarini noqonuniy barpo etish kiradi. Bunday obyektlarning mavjudligi nafaqat texnogen xavfni oshiradi, balki favqulodda vaziyatlarda xizmat ko‘rsatish yo‘laklarini to‘sib qo‘yib, avariya-tiklash ishlariga jiddiy to‘sqinlik qiladi (Ballinger, 2005).

Qarorga ko‘ra, bunday qurilishlar o‘zboshimcha qurilish sifatida baholanib, majburiy tarzda buzib tashlanishi kerak. Biroq Buxoro misolidagi 750 ta obyekt shuni ko‘rsatadiki, nazorat va ijro mexanizmlarining amaldagi samaradorligi yetarli darajada emas; ko‘p hollarda qurilish tugaganidan keyin, ya’ni xavf allaqachon yuzaga kelganidan so‘ng chora ko‘rilmoqda.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida sohadagi quyidagi tizimli muammolar aniqlandi (1-rasm):

*Birinchidan,* muhofaza zonalariga oid normalar Yer kodeksi, Shaharsozlik kodeksi, sohaga oid maxsus qonunlar va ko‘plab hukumat qarorlarida tarqoq holda bayon etilgan. Yagona “Muhofaza zonalari to‘g‘risida”gi qonun yoki unifikatsialashgan huquqiy hujjatning mavjud emasligi huquqni qo‘llash amaliyotida tushunmovchiliklar va huquqiy kolliziyalarga sabab bo‘lmoqda.

*Ikkinchidan,* Ballinger va Vormeyer konsepsiyalarida tavsiya etilganidek, zonalar bo‘yicha yaxlit va ochiq elektron reyestr shakllantirilmagan. Buning oqibatida jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, davlat organlari muhofaza zonalarining aniq chegaralarini aniqlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

*Uchinchidan,* Yer resurslaridan foydalanishda iqtisodiy manfaatlar (masalan, qum-shag‘al qazib olish) ekologik va xavfsizlik talablari bilan to‘liq muvofiqlashtirilmagan, bu esa tabiiy ekotizimlarning degradatsiyasiga olib kelmoqda.

*To‘rtinchidan,* noqonuniy qurilishlar ko‘p hollarda qurib bitkazilgandan so‘ng aniqlanadi. O‘z navbatida, noqonuniy inshootlarni buzish bo‘yicha sud qarorlarining ijrosi protsessual murakkabliklar va uzoq muddatli kechikishlar bilan xarakterlanadi.

*Beshinchidan,* aholi va biznes subyektlari muhofaza zonalaridagi huquqiy rejimlar va cheklovlar haqida yetarli darajada xabardor emas. Vormeyer ta’kidlaganidek, axborot yetishmasligi huquqbuzarliklar va yerlardan noqonuniy foydalanishning asosiy *“drayveri”* bo‘lib qolmoqda.




**1-rasm. Muhofaza zonalarida yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish holatlarining dinamikasi (2023–2025-yy.)**

Manba: muallif tomonidan ma’muriy ishlar va nazorat organlari hisobotlari tahlili asosida shakllantirilgan.

1-rasm muhofaza zonalari doirasida yer uchastkalarini oʻzboshimchalik bilan egallab olish holatlarining 2023–2025-yillar davomidagi dinamikasini aks ettiradi. 2023-yilda taxminan 30 mingta holat qayd etilgan boʻlsa, 2024-yilda bu koʻrsatkich 70 mingtagacha keskin oshgan. Bu oʻsish qurilish faolligining kuchayishi, *E-auksion* orqali ajratilayotgan uchastkalar boʻyicha axborot boʻshliqlari hamda nazorat mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi bilan izohlanadi. 2025-yilning 9 oy yakunlari boʻyicha holatlar soni yana 30 ming atrofida qayd etilgan boʻlib, bu 2024-yildagi eng yuqori choʻqqidan sezilarli pasayishni koʻrsatsa-da, 2023-yil darajasidan pastga tushmaganini bildiradi. Demak, qisqa muddatli maʼmuriy choralar natijasida muayyan ijobiy siljish kuzatilgani holda, tizimli islohotlar boʻlmasa, muammo barqaror yuqori darajada saqlanib qolishi ehtimoli katta.

2-rasm muhofaza zonalarida qayd etilgan qonunbuzilishlarning funksional tuzilmasini aks ettiradi. Maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, huquqbuzarliklarning eng katta qismi – 63 foizi yer va yerosti resurslaridan foydalanish bilan bogʻliq (yer uchastkalarini oʻzboshimchalik bilan egallash, ruxsatsiz qurilish, yer qaʼridan belgilangan tartibda foydalanmaslik va boshqalar).




**2-rasm. Muhofaza zonalarida qayd etilgan qonunbuzilish holatlarining funksional tuzilmasi**

Manba: muallif tomonidan nazorat organlari maʼlumotlari asosida qayta ishlangan.

Suv obyektlariga tegishli buzilishlar 36 foizni tashkil etib, daryo oʻzanlari, sohilboʻyi hududlari va suvni muhofaza qilish zonalaridagi cheklovlarga rioya etilmayotganini koʻrsatadi. Qum-shagʻal qazib olish bilan bogʻliq alohida qayd etilgan holatlar ulushi 1 foizni tashkil etgan boʻlsa-da, ularning har biri ekologik zarar miqyosi va daryo ekotizimlariga taʼsiri nuqtayi nazaridan yuqori xavfli toifa sifatida baholanadi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, muhofaza zonalaridagi huquqbuzarliklar asosan yer va yerosti resurslaridan foydalanish jarayonlari bilan bevosita bogʻliqdir. Suv obyektlari va qum-shagʻal qazib olish sohasidagi qonunbuzarliklar tahlili tizimning asosiy zaif nuqtalari aynan tabiiy resurslar aylanmasi va yer uchastkalarini ajratish hamda roʻyxatdan oʻtkazish jarayonlarida toʻplanganligini tasdiqlaydi.

Muhofaza zonalarini huquqiy tartibga solish boʻyicha xorijiy davlatlar, xususan, Germaniya Federativ Respublikasi tajribasi Oʻzbekiston uchun bir qator konseptual yondashuvlarni namoyon etadi. Germaniyaning “Suv resurslarini boshqarish toʻgʻrisida”gi Qonunining (*Wasserhaushaltsgesetz – WHG*) 51–52-moddalariga muvofiq, umumiy suv

ta'minoti manfaatlarini himoya qilish maqsadida suv havzalarida maxsus muhofaza zonalari belgilanadi (Ballinger, 2005). Ushbu zonalar nafaqat suv zaxiralarini saqlash, balki yomg'ir suvlari oqimini boshqarish hamda agroximikatlarning suv havzalariga kirib borishini cheklash kabi muhim vazifalarni bajaradi.

Germaniya tajribasining o'ziga xos jihati shundaki, muhofaza zonasi maqomini berish viloyat darajasida amalga oshiriladi va u dastlab uch yilgacha bo'lgan muddatga belgilanadi. Ekologik holat qayta baholanganidan so'ng, ushbu muddat ko'pi bilan yana bir yilga uzaytirilishi mumkin. Bunday "muddatli yondashuv" yer uchastkalarining cheklanmagan muddatga muayyan subyektlarga biriktirib qo'yilishidan kelib chiqadigan korrupsiyaviy xavflarni kamaytiradi hamda ekologik xavfsizlik mezonlarini doimiy monitoring qilish imkonini beradi (Ballinger, 2020).

Buyuk Britaniyada esa qirg'oqbo'yi hududlarini boshqarish *Shoreline Management Plans* (SMP) orqali amalga oshiriladi. Ushbu rejalashtirish tizimi sohil chizig'ining eroziyaga uchrashi, suv sathining o'zgarishi, tarixiy va madaniy meros obyektlari, iqtisodiy infratuzilma va aholi yashash joylari o'rtasidagi murakkab muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Suv obyektlari atrofidagi hududlar to'liq taqiqlangan zonalar sifatida emas, balki alohida tartib va cheklovlarga ega bo'lgan funksional hududlar sifatida ko'riladi; ya'ni investitsiya va xo'jalik faoliyatini butunlay man etish o'rniga, ularni ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish talablari bilan uyg'unlashtiruvchi mexanizmlar qo'llanadi. Bu yondashuv yerga bo'lgan huquqlarni saqlagan holda, foydalanish shartlarini qat'iylashtirish va resurslardan foydalanish jarayonini doimiy monitoring ostiga olishga imkon beradi (Vormeier, 2017).

Germaniya va Buyuk Britaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, muhofaza zonalarining samaradorligi nafaqat cheklovlar qanchalik qattiq belgilanganligiga, balki ularning muddatli, qayta ko'rib chiqiladigan va raqamli monitoring tizimlari bilan integratsiyalashgan bo'lishiga bog'liq. Bu model O'zbekiston uchun ham moslashtirilishi mumkin: muhofaza zonalarini kategoriyalar bo'yicha farqlash, ulardan foydalanish huquqlarini ma'lum muddatga berish va ekologik natijalar asosida uzaytirish, shuningdek, GIS va yagona reyestr asosida boshqarish – mavjud muammolarni kamaytirish uchun muhim institutsional asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Xulosa**

O'tkazilgan nazariy, normativ va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida muhofaza zonalari hududidagi yer uchastkalaridan foydalanish bo'yicha huquqiy tartib mavjud bo'lsa-da, ularning samarali ishlashini ta'minlovchi tizimli mexanizmlar to'liq shakllanmagan. Suv havzalari atrofida noruda materiallarni noqonuniy qazib olish, energetika va temiryo'l infratuzilmasi muhofaza zonalarida o'zboshimchalik bilan qurilish qilish holatlarining ko'pligi, shuningdek, idoralararo ma'lumotlar integratsiyasining yo'qligi ushbu institutning huquqiy himoya funksiyasini sezilarli darajada susaytirmoqda.

Germaniya va Buyuk Britaniya kabi davlatlar tajribasi esa muhofaza zonalarini differensial kategoriyalash, muddatli foydalanish rejimini joriy etish hamda yagona raqamli reyestr asosida monitoring qilishning yuqori samaradorligini isbotlamoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, sohadagi huquqiy tartibotni takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi:

*Birinchidan,* Germaniya va Buyuk Britaniya modellarini milliy qonunchilikka moslashtirgan holda, muhofaza zonalarini xavf darajasiga ko'ra "A", "B" va "C" toifalarga ajratish taklif etiladi. "A" toifasi – ekologik va texnogen xavfi yuqori bo'lgan, har qanday xo'jalik faoliyati qat'iyan man etiladigan hududlar; "B" toifasi – cheklangan xo'jalik faoliyatiga (past intensivlikdagi infratuzilma yoki rekreatsion maqsadlar) ruxsat etiladi-


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

gan zonalar; “C” toifasi – qat’iy ekologik va texnik reglamentlar asosida nazorat ostidagi xo‘jalik faoliyatiga yo‘l qo‘yiladigan hududlar.

*Bunday yondashuv iqtisodiy manfaatdorlik va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi optimal muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.*

*Ikkinchidan,* Germaniya tajribasidan kelib chiqib, muhofaza zonalaridagi yer uchastkasidan foydalanish huquqini vaqtinchalik (masalan, uch yilgacha) muddatga berish tartibini joriy etish lozim. Huquqni uzaytirish faqatgina ijobiy ekologik monitoring va ekspertiza xulosasi asosida amalga oshirilishi shart. Bu mexanizm:

– Yer resurslaridan “abadiy” va nazoratsiz foydalanish imkoniyatini cheklaydi;

– korrupsiyaviy xavflarni kamaytiradi;

– atrof-muhitga yetkazilayotgan ta’sirni muntazam qayta baholash tizimini shakllantiradi.

*Uchinchidan,* Buxoro viloyati misolida aniqlangan tizimli huquqbuzarliklar an’anaviy nazorat usullari samarasiz ekanini tasdiqlaydi. Shu bois barcha muhofaza zonalari bo‘yicha interaktiv kadastr xaritalarini yaratish, masofadan zondlash (dronlar va sun’iy yo‘ldoshlar) hamda real vaqt rejimida GIS-monitoringni yo‘lga qo‘yish zarur. Bunday tizim noqonuniy qurilish va yer egallash holatlarini erta bosqichda aniqlash, vakolatli organlar uchun avtomatik xabarnomalar yuborish va inson omilini kamaytirish va profilaktika choralarini tezkorlik bilan qo‘llash imkonini beradi.

*To‘rtinchidan,* hozirgi kunda muhofaza zonalariga oid ma’lumotlarning tarmoq idoralari (temiryo‘l, energetika, ekologiya, suv xo‘jaligi) tasarrufida tarqoq holda saqlanishi tizimli huquqiy noaniqliklarni keltirib chiqarmoqda. Yagona elektron reyestrning barpo etilishi:

– muhofaza zonalari chegaralarini huquqiy jihatdan aniqlashtirish;

– fuqarolar va tadbirkorlar uchun ochiq va shaffof axborot bazasini shakllantirish;

– *E-auksion* va boshqa raqamli platformalar bilan avtomatik integratsiyani ta’minlash orqali korrupsiyaviy risklarni minimallashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, muhofaza zonalaridagi yer uchastkalaridan foydalanishni mutlaqo taqiqlash na iqtisodiy, na ijtimoiy nuqtayi nazardan o‘zini oqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, eng maqbul yechim – ushbu yerlarga bo‘lgan huquqlarni saqlagan holda, foydalanish shartlarini transformatsiya qilishdir. Buning uchun foydalanish rejimlarini qat’iylashtirish, huquqlarni muddatli xarakterga o‘tkazish hamda foydalanuvchi zimmasiga ekotizimni tiklash va infratuzilma xavfsizligini saqlash bo‘yicha aniq imperativ majburiyatlar yuklash lozim. Xalqaro tajriba asosida shakllantirilgan ushbu model O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, infratuzilma barqarorligini oshirish va yer resurslaridan foydalanishning mustahkam huquqiy mexanizmini yaratishga xizmat qiladi.

## REFERENGES

1. Ballinger, R. C. (2005). *Coastal zone management: Principles and practice*. Earthscan. https://www.researchgate.net/publication/275655805_Coastal_Zone_Management_Principles_and_Practice_Introduction_and_Overview

2. Ballinger, R. C. (2020). Shoreline management plans in England and Wales: An evaluation of the scientific basis. *Marine Policy*, *115*.

3. Bundesrepublik Deutschland. (2009, 31. Juli). *Wasserhaushaltsgesetz [German Water Resources Act] (WHG).* Bundesgesetzblatt I, S. 2585. https://www.gesetze-im-internet.de/whg_2009/index.html

4. Cummins, V., O'Mahony, C., & Connolly, N. (2004). *Review of integrated coastal zone management and principles of best practice*. The Heritage Council. https://www.heritagecouncil.ie/content/files/review_integrated_coastal_zone_management_2003_2mb.pdf

5. Department for Environment, Food and Rural Affairs. (2017). *Shoreline management plan guidance. Volume 1: Aims and requirements*. Defra. https://www.dhigroup.com/upload/campaigns/ShorelineManagementGuidelines_Feb2017.pdf

6. Environment Agency. (2023). *Shoreline management plan supplementary guidance*. UK Government. https://environment.data.gov.uk/shoreline-planning/documents/Shoreline%20Management%20Plan%20Supplementary%20Guidance%202023.pdf

7. IPCC Coastal Zone Management Subgroup. (1990). *Coastal zone management.* In *Climate change: The IPCC response strategies* (pp. 131–158). Intergovernmental Panel on Climate Change. https://www.ipcc.ch/site/assets/uploads/2018/03/ipcc_far_wg_III_chapter_05.pdf

8. Jurayev, B. (2024). Yer munosabatlarida ekologik xavfsizlik va muhofaza zonalarining huquqiy ta'minoti: Qonunchilik va amaliyot tahlili [Legal support for environmental security and protected zones in land relations: Analysis of legislation and practice]. *Scientific Bulletin of Law and Public Policy*, *3*(1), 48–59.

9. Kazakov, A., Khasanov, I., Maxmadiyev, D., Xakberdiyev, M., & Akbarkhonov, S. (2022). Formation of land use system in Uzbekistan: Past and today. *E3S Web of Conferences*, *365*, 04014. https://www.researchgate.net/publication/375520362_Formation_of_land_use_system_in_Uzbekistan_Past_and_today

10. Kenjaev, R. Kh. (2024). The role and importance of environmental control in the use and protection of agricultural land in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies*, *2*(2), 378–395. https://www.grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/download/3314/2876/5800

11. Kholdorov, S., Jabbarov, Z., & Shamsiddinov, T. (2023). Soil governance: A review of the current legislative framework for managing soil resources in Uzbekistan. *Soil Security*, *11*, 100105. https://doi.org/10.1016/j.soisec.2023.100105

12. National News Agency of Uzbekistan. (2023). *"O'zenergoinspeksiya" Buxoro hududiy bo'limi tomonidan elektr tarmoqlari muhofaza zonalarida 750 ta noqonuniy qurilish aniqlangani haqida axborot [Information on the detection of 750 illegal constructions in the protection zones of electric networks by the Bukhara regional branch of "Uzenergoinspeksiya"].* UZA.uz.

13. Shokirov, Sh., & Musayev, I. M. (2025). Suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalarini belgilash va monitoringini yuritish usullari, yutuqlar, muammolar va ilmiy yechimlar [Methods for establishing and monitoring water protection zones of water bodies: Achievements, problems, and scientific solutions]. *Oriental Journal of Geography*, 1–12.

14. Tursunov, D., & Rustamov, N. (2025). O'zbekiston Respublikasida suvni muhofaza qilish zonalarida yer resurslaridan foydalanish huquqiy mexanizmlari [Legal mechanisms for the use of land resources in water protection zones in the Republic of Uzbekistan]. *Journal of Environmental Law and Policy Studies, 1*(4), 112–127.

15. Uzakova, G. S. (2025). Environmental and legal requirements for zoning of urban settlements in the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Development and Public Research*, 15–30. http://pubjournals.com/ijdpr/article/download/162/132/425

16. Vormeier, P. (2017). *Kommunales flächenmanagement und schutzgebietssysteme [Municipal land management and protected area systems].* Vahlen Verlag.


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2026-yil 1-son**

VOLUME 10 / ISSUE 1 / 2026

DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1.